



**TA'LIM TIZIMINI MOLIYALASHTIRISH ISTIQBOLLARI
(OLIY TA'LIM MISOLIDA)**

Xujamkulov Dilmurod Yusupaliyevich,
i.f.n., prof v.b.

Allayorova Malohat Normahmat qizi,
ORIENTAL universiteti magistranti

Odinamatov Nuriddin Xusnitdin o'g'li,
TDTrU talabasi

Annotatsiya: Maqolada oliy ta'lim tizimida moliyalashtirish holati, muammolari hamda uning ahamiyati ko'rsatib o'tilgan. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirishda moliyaviy resurslarning ahamiyati va uni tasarruf etish yuzasidan tahliliy yondashuvlar o'rganilgan. Jarayonning o'ziga xos jihatlari aniq ma'lumotlar asosida tahlil qilinib, mavjud muammolar va erishilgan yutuqlar atroflicha ko'rsatilgan. Shu asosda ilmiy xulosa va amaliy takliflar o'rta tashlangan.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim tizimi, moliyalashtirish, moliyalashtirishning holati, muammolar va prognozlar, ta'lim sifatini boshqarish, oliy ta'lim muassasalarini samarali boshqarish, reyting, moliyaviy barqarorlik, to'lov qobiliyati, rentabellik.

Jahon iqtisodiyotida global raqobat sharoitida bilimga, inson kapitali va innovatsion rivojlanish bilan bog'liq ilmiy tadqiqotlarga e'tibor kuchayib bormoqda. Intellektual salohiyat hamda innovatsion resurslarga sarmoya kiritish hajmini oshirish, ilmiy innovatsiyalarni doimiy ravishda qo'llab quvvatlash va amaliyotga samarali tatbiq etish, iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida ta'limni moliyalashtirishni takomillashtirish,



xususan, oliy ta'lim muassasalari moliyaviy mustaqilligini kengaytirish, boshqaruv tizimlarini optimallashtirish va hisobdorligini oshirish orqali ularning daromad manbalarini diversifikatsiya qilish bugungi kunning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekistonda ta'lim tizimini, ayniqsa, oliy ta'lim muassasalari salohiyatini yanada oshirish, olib borilayotgan islohotlar va zamon talabiga to'liq javob beradigan oliy ta'lim muassasalarini ochish, sohaning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish va ta'lim sohasiga zamonaviy o'qitish metodologiyasini keng joriy etish, oliy ta'lim dargohlarining moddiy texnika bazasini yanada mustahkamlash davr talabidir. Ta'lim muassasalari moliyaviy o'z-o'zini ta'minlash tizimiga bosqichma-bosqich o'tkazilmoqda.

Ta'kidlash joizki, O'zbekistonda o'rganilayotgan muammo yuzasidan chop etilgan ilmiy-tadqiqotlar, bajarilgan doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalari, asosan, menejment va marketing ixtisosligi bo'yicha bo'lib, mavzuning nazariy uslubiy jihatlari umumlashtirilgan va rivojlanish qonuniyatlari tahlil qilingan ilmiy ishlar deyarli yo'q. Natijada ta'lim tizimi va undagi moliyaviy resurslarning samaradorligini oshirishning nazariy jihatlari tadqiq etilishi, uni diversifikatsiyalash, sohada raqobat muhiti shart-sharoitlarini yanada kuchaytirish, samaradorligini aniqlashning ilmiy-uslubiy jihatlari o'rganish masalalari dolzarbligicha qolmoqda. Ayniqsa, masalaga milliy iqtisodiyot nuqtayi nazaridan, talaba va aholi keng qatlamlari hamda mintaqaviy nuqtai nazardan zamonaviy fundamental-innovatsion xarakterdagi iqtisodiy tadqiqotlarni tashkil etishgacha bo'lgan uzluksiz oliy ta'lim tizimi sifatida yondashuvamalgaoshirilmagan.

Bugungi kunda iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy resurslarini samarali tasarruf etish masalasini o'rganishda asosiy e'tibor nafaqat uning shakllanishiga, balki uning samaradorligiga, to'g'ri, maqsadli tasarruf etilishiga qaratilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki jamiyat miqyosidagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar markazida oliy ta'lim muassasalari, ta'lim iqtisodiyoti, xususan, mamlakatning har tomonlama rivojlanishiga katta hissa qo'shadigan oliy ma'lumotli intellektual kadrlar tayyorlash siyosati yotadi.



Bugungi kunga kelib respublikamizda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning bir yo‘nalishi sifatida ta‘lim tizimi, xususan oliy ta‘lim tizimiga berilayotgan keng imkoniyatlar ham ta‘lim xizmatlari bozorida yuzaga kelgan keskin raqobat muhiti davlat oliy ta‘lim muassasalarida, jumladan, byudjetdan moliyalashtiriladigan OTMLlarda moliyaviy munosabatlar masalasida dolzarb savollar ko‘ndalang bo‘lmoqda. Jumladan, oliy ta‘limni moliyalashtirish masalalarida quyidagi muammolar mavjud:

1. Oliy ta‘lim tizimining davlat tomonidan yetarlicha moliyalashtirilmasligi.
2. Oliy o‘quv yurtlarida byudjetdan tashqari daromad manbalaridan foydalanishda iqtisodiy mustaqillikning yo‘qligi.
3. To‘lov-kontrakt miqdorining yetarlicha aniq hisob-kitoblarga tayanilmaganligi va amaldagi xarajatlarga mos emasligi.

Quyidagi jadval O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining yillik hisobotlari asosida tayyorlangan va muallif tomonidan qo‘shimchalar kiritilgan.

1-jadval.

Ko‘rsatkichlar		O‘lchov birligi	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.
			Kontrakt	Kontrakt	Kontrakt	Kontrakt	Kontrakt	Kontrakt
1.	Daromad jami, shundan	mlrd. so‘m	3 448,5	5 000,1	6 990,3	8 444,2	8 400,6	8 621,7
1.1	Yil boshiga qoldiq	mlrd. so‘m	946,0	1 499,8	2 149,8	3 203,2	3 683,7	3 913,5
1.2	Yillik tushum	mlrd. so‘m	2 502,5	3 500,3	4 840,5	5 241,0	4 716,9	5 321,6
	<i>Shundan oshirilgan kontrakt bo‘yicha</i>	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>568,9</i>	<i>626,9</i>				
2.	Jami xarajatlar	mlrd. so‘m	1 940,8	2 850,3	4 377,8	4 702,5	5 159,7	5 318,2
2.1	I guruh xarajatlari	mlrd. so‘m	1 576,8	2 137,6	2 824,6	3 252,4	3 481,2	3 675,8



	Ish haqqi fondi-jami	mlrd. so'm	709,9	1 296,3	2 308,6	2 770,3	3 047,4	3 202,6
	Stipendiya	mlrd. so'm	866,9	841,3	516,0	482,0	433,8	411,1
2.	II guruh	mlrd.						
2	xarajatlari	so'm	172,2	316,6	577,2	577,2	761,8	912,3
2.	IV guruh	mlrd.						
3	xarajatlari	so'm	191,9	396,1	976,0	873,0	916,6	1013,1
3.	Budjetdan							
	moliyalashtiriladig	ta	89 ta	99 ta	106 ta	110 ta	113 ta	117 ta
	an OTMlar jami							
4.	Shtat birliklari-jami	shtat birligi	38 747	39 583	40 770	40 770	43 200	45 320
	<i>Shundan professor-</i>	<i>shtat</i>						
	<i>o'qituvchilar</i>	<i>birligi</i>	<i>19 829</i>	<i>20 569</i>	<i>21 186</i>	<i>21 186</i>	<i>21 109</i>	<i>21 375</i>
5.	Talabalar soni yil oxirida	nafar	274793	354636	445404	445404	445404	445404
6.	Tasdiqlangan qabul kvotalari	nafar	81 397	93 521	121405	121405	121405	121360
7.	Bitta talabaga o'rtacha xarajatlar	ming. so'm	7 063	8 037	9 829	10 558	11 584	12 207

Mazkur jadvalda e'tibor beriladigan muhim jihatlaridan biri bu bir talabani tayyorlash uchun qilingan xarajatlar miqdori dinamikasi. Chunki, OTMlarni moliyalashtirishda 1 nafar talabaga qilingan xarajatlar miqdori asos sifatida qabul qilinadi. Mazkur holat bo'yicha ta'kidlash joizki, bugungi kunda ko'plab davlatlar oliy ta'lim muassasalari oldida turgan muammolardan biri, talabalar sonining tez o'sishi moliyaviy resurslarni ko'paytirish imkoniyatidan ustun bo'lib qolmoqda. Chunki, talabalar tomonidan to'lanayotgan to'lov-kontrakt miqdori belgilangan xarajatlarni qoplamaydi. Bugungi kunda bir nafar talabani o'qitishning o'rtacha xarajati 11,5 million so'mni tashkil etgani holda, to'lov-kontrakt



qiymati miqdori o‘rtacha 8,7 million so‘m etib belgilanmoqda. Mazkur ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi salbiy farq bugungi kunda yanada kengaydi chunki respublikamiz miqyosida oylik ish haqi, nafaqalar va stipendiyalar oshirildi, shu bilan bir qatorda talabalarga pandemiya sharoitida ularni qo‘llab-quvvatlash maqsadida to‘lov-kontrakt miqdoridan chegirma berilganligi bilan izohlash mumkin.

Ushbu holat, OTMlarni moliyalashtirishga jiddiy ta‘sir etuvchi omillardan biri sanaladi. Chunki, ushbu nomutanosiblik natijasida belgilangan, rejalashtirilgan xarajatlarni qoplashda muammolar kelib chiqadi, biroq ushbu yetishmayotgan mablag‘lar orttirilgan (super) kontrakt to‘lovi orqali qoplanmoqda. Fikrimizcha, bu vaqtinchalik vaziyatdan chiqishga qaratilgan chora-tadbir. Ammo jahon tajribasida, bu kabi holatlarga bevosita oliy o‘quv yurtining reytingiga va samaradorlik ko‘rsatkichlariga jiddiy salbiy ta‘sir ko‘rsatadigan ko‘rsatkich sifatida qaraladi va baholanadi. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda OTMlarga real xarajatlarni hisobga olgan holda to‘lov-kontrakt mablag‘lari miqdorini belgilash mexanizmini joriy etish lozim.

To‘lov shartnomasi asosida o‘qitishdan tushgan mablag‘lardan va byudjet tashkilotining rivojlanish fondi mablag‘laridan foydalanish tartibi aniq emas. Bu noaniqlik ko‘p jihatdan mablag‘ manbalarining o‘xshashligi, ulardan foydalanish yo‘nalishi esa bir-biridan farq qilishi bilan izohlanadi. Shu munosabat bilan oliy o‘quv yurtlarida byudjetdan tashqari mablag‘lardan foydalanishda quyidagi muammolar yuzaga keladi: moliyaviy yil tugaguncha byudjet tashkilotlarining rivojlanish fondiga o‘tkazish mumkin bo‘lgan tejab qolingan mablag‘lar miqdorini aniqlash qiyinligi yoki aniqlab bo‘lmasligi; vazirlik va boshqa moliyaviy tashkilotlar tomonidan nazorat qilishni nazarda tutuvchi hisobga olish va moliyaviy hisobotning mavjud tizimi moliyaviy organlar uchun joriy nazoratni xam, ta‘lim muassasalari uchun esa hisobotdorlikni ham murakkablashtiradi.

Ta‘lim muassasasi rahbarlari ta‘lim tizimining asosiy funksiyalari bilan bevosita bog‘liq boshlang‘ich resurslar tarkibini puxta tahlil qilishlari zarur. Ta‘lim xarajatlari tarkibida ta‘lim uchun muhim bo‘lgan darsliklar, muassasani texnikaviy jihatdan saqlash,



o'qituvchilar malakasini oshirish, shuningdek, chiqim materiallarini hamda o'quv qo'llanmalari singari boshlang'ich resurslar haddan tashqari "siqib qo'yiladi", chunki xarajatlarning asosiy qismi, o'quv jarayoni, kommunal xizmatlarni, ish haqini moliyalashtirishga to'g'ri keladi. Narx-navo konyunkturasiga qarab ish tutuvchi mehnat bozori rivojlanishiga ko'ra, o'qituvchilarning o'sib borayotgan ish haqi xarajatlari bevosita dars berish, moddiy-texnika resurslari bilan bog'liq bo'lmagan xarajatlarni bundan-buyon ham siqib chiqaradi.

Alohida yondashuv talab etishi bilan bir qatorda OTMlarga byudjet mablag'lari ajratilishida mavjud inflyatsiya darajasi, Markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkalari inobatga olinmaydi. Ayniqsa, 4-guruh xarajatlarini shakllantirishda, jumladan, kapital, joriy ta'mirlash va jihozlash hamda asosiy vositalar xarid qilishda bu jihat inobatga olinmay kelmoqda. OTMlarda moliyaviy resurslar samaradorligi va uning ko'rsatkichlarini, istiqbolini o'rganish, baho berish bevosita e'tibor beriladigan muhim jihat sanaladi.

Ta'lim tizimini moliyalashtirish, xususan, oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirish istiqbollari quyidagi xulosa va takliflarni keltirib chiqaradi.

1. Oliy o'quv yurtlarini moliyalashtirish manbalarini kengaytirish bevosita tashkilotlar va fuqarolardan turli xil davlat moliyaviy rag'batlantirish vositalaridan va dastaklaridan foydalanishni hamda qo'llashni taqozo etadi: jumladan, byudjet subsidiyalari joriy etish, subvensiyalar, grantlar, soliq imtiyozlari va boshqalar shular jumlasidan.
2. Mamlakatdagi mavjud oliy ta'limni moliyalashtirish tizimi, xuddi oliy ta'limning o'zi singari, jiddiy yangilanishga muhtoj. Bugungi kunda oliy ta'limning asosan ekstensiv rivojlanishi uning resurs bazasini shakllantirish, moliyalashtirish tizimini takomillashtirish bo'yicha muqarrar qarorlar chiqarilishi va mavjudlari qayta ko'rib chiqilishi talab etiladi.
3. OTM tizimini moliyalashtirish ko'rsatkichlarini 2026 yilga qadar bashoratlash, shunga muvofiq keladigan resurslar bazasini rivojlantirish va takomillashtirishni taqozo qiladi. Bu esa oliy ta'lim tizimini moliyalashtirishning barcha manbalaridan samarali foydalanishni dolzarb qilib qo'yadi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi //Xalq so‘zi, 2020 yil, 25 yanvar.– 3 b.
2. Qo‘ziyev Z.B., Ta‘lim tizimida xizmatlar va tadbirkorlik faoliyati samaradorligini oshirish: iqtisod.f.bo‘yicha (PhD) falsafa doktori dissertatsiyasi.– Samarqand, 2020.
3. G‘ulomov S., Ochilov I., Saydaxmedov O. Intellectual iqtisodiyotda samaradorlik omillari //O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi jurnali, 2015.– №6–B.38-4
4. Abulqosimov X.P., Alimova G. O‘zbekistonda ijtimoiy soha rivojlanishi: erishilgan natijalar va istiqbolli yo‘nalishlar. Elektron manba: <http://www.biznesdaily.uz/ru/birjaexpert/15405-ozbkistonda-ijtimoiy-soha-rivojlanishi-erishilgan-natijalar-va-stiqbol-yonalishlar>
5. www.lex.uz milliy qonunchilik bazasi. <https://lex.uz/docs/5841063>.
6. “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF 5847-son farmonida. WWW.Lex.uz
7. Струмилин С.Г. Методология оценки и повышения эффективности государственной системы высшего профессионального образования: автореф. дис. докт.экон. наук.– СПб., 2002.– 41 с.